ISLOMDA BAĞRIKENGLIK VA TINCLIKSEVARLIK ĞOYALARI DINIY MANBALAR ASOSIDA TAHLIL

BAHROMOV UMID
ŞAHRISABZ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ÕQITUVCIŞI

HAZRATQULOVA RUXŞONA
ŞAHRISABZ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI TALABASI
DOI:https://doi.org/10.5281/zenodo.24437971

Annotatsiya : Maqolada Islom dinida bağrikenglik va tincliksevarlik ğoyalarining mazmun-mohiyati Qur'oni karim oyatlari va islomiy manbalar asosida tahlil etiladi. Şuningdek, dinlararo va millatlararo totuvlik, insonparvarlik, õzaro hurmat hamda tinclikni ta'minlaşda islomiy qadriyatlarning ahamiyati yoritiladi.

Kalit sõzlar: Islom, bağrikenglik, tincliksevarlik, Qur'oni karim, hadis, insonparvarlik, dinlararo totuvlik, mehr-oqibat.

Аннотация : В статье анализируется сущность идей толерантности и миролюбия в исламе на основе аятов Священного Корана и исламских источников. Также рассматривается значение исламских ценностей в укреплении межрелигиозного и межнационального согласия, гуманизма, взаимного уважения и мира.

Ключевые слова: ислам, толерантность, миролюбие, Священный

Annotation :he article analyzes the essence of tolerance and peace-oriented ideas in Islam based on the verses of the Holy Quran and Islamic sources. It also examines the importance of Islamic values in strengthening interfaith and interethnic harmony, humanism, mutual respect, and peace.

Keywords: Islam, tolerance, peace, Holy Quran, Hadith, humanism, interfaith harmony, mutual respect.

KIRIŞ: Insoniyat tarixida tinclik, õzaro hurmat, bağrikenglik va hamjihatlik jamiyat taraqqiyotini belgilovci eng muhim ma'naviy qadriyatlardan biri bõlib kelgan. Turli millat, din, til va madaniyat vakillarining bir hududda tinc-totuv yaşaşi, bir-birining e'tiqodi va dunyoqaraşiga hurmat bilan munosabatda bõlişi ijtimoiy barqarorlikning muhim şartidir. Ayniqsa, bugungi globallaşuv jarayonida diniy va milliy xilma-xillik şaroitida bağrikenglik tamoyillarini rivojlantiriş, turli qaraşlar õrtasida õzaro muloqot va hamkorlikni mustahkamlaş dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Jahon dinlari orasida Islom dini ham insonparvarlik, adolat, mehr-oqibat, tinclik va bağrikenglik ğoyalariga alohida e'tibor qaratadi. Islom ta'limotida insonning qadr-qimmati, uning huquqlari va şa'nini hurmat qiliş, turli e'tiqod vakillari bilan adolatli munosabatda bõliş muhim axloqiy tamoyillar sifatida qaraladi.

Şu jihatdan, Islom dinining asosiy manbalari hisoblangan Qur'oni karim va hadislarda bayon etilgan bağrikenglik hamda tincliksevarlik ğoyalarini õrganiş nafaqat diniy, balki ijtimoiy-ma'naviy ahamiyatga ham ega. Qur'oni karimning Baqara surasi 256-oyatida "Dinda zõrlaş yõq" tamoyilining bayon etilişi insonning e'tiqod erkinligiga hurmat bilan munosabatda bõliş zarurligini kõrsatadi. Mazkur oyatda e'tiqod masalasida majburlaşning rad etilişi diniy bağrikenglikning muhim asoslaridan biri sifatida namoyon bõladi. Şuningdek, Hujurot surasining 13-oyatida insonlarning turli xalqlar va qabilalarga ajratilişi bir-birlarini tanişlari va õzaro munosabat õrnatişlari ucun ekani ta'kidlanadi.

Mavzuning dolzarbligi şundaki, hozirgi davrda diniy bağrikenglik va tinchliksevarlik ğoyalarini yoşlar ongiga singdiriş, ularni turli diniy qaraşlarga nisbatan hurmat, õzaro hamjihatlik va insonparvarlik ruhida tarbiyalaş muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Islom manbalarida ilgari surilgan mazkur ğoyalarni ilmiy asosda õrganiş diniy qadriyatlarning asl mazmunini anglaş, notõğri talqinlarning oldini oliş va jamiyatda tinchlik muhitini mustahkamlaşga xizmat qiladi. Maqolaning maqsadi Islom dinida bağrikenglik va tinchliksevarlik ğoyalarining mazmun-mohiyatini Qur'oni karim va boşqa diniy manbalar asosida tahlil qiliş, ularning insonparvarlik, dinlararo totuvlik va jamiyat barqarorligini ta'minlaşdagi ahamiyatini ocib berişdan iborat. Maqolaning asosiy vazifalari Islom dinida bağrikenglik tuşuncasining mohiyatini yoritiş, Qur'oni karim oyatlarida tinchlik va õzaro hurmat tamoyillarining ifodalanişini tahlil qiliş, Payğambar Muhammad (s.a.v.)ning hayotlarida namoyon bõlgan bağrikenglik namunalarini õrganiş hamda uşbu qadriyatlarning zamonaviy jamiyatdagi ahamiyatini asoslaşdan iborat. [1]

Adabiyotlar tahlili va metodologiya : Islom dinida bağrikenglik va tinchliksevarlik ğoyalarini õrganişda, avvalo, Qur'oni karim asosiy va muhim manba hisoblanadi. Qur'oni karimda insonlar õrtasidagi munosabatlar, adolat, mehr-oqibat, õzaro hurmat, tinchlik va murosaga oid kõplab kõrsatmalar mavjud. Xususan, Baqara surasining 256-oyati, Hujurot surasining 13-oyati, Mumtahana surasining 8-oyati va Anbiyo surasining 107-oyati mazkur mavzuni õrganişda muhim nazariy asos bõlib xizmat qiladi. Payğambar Muhammad (s.a.v.)ning hayotlari va faoliyatlarini yorituvci hadis tõplamlari ham bağrikenglik va insonparvarlik ğoyalarini õrganişda muhim õrin tutadi. Imom Buxoriy va Imom Muslimning hadis tõplamlarida insonlarga mehr kõrsatiş, qõşnicilik munosabatlariga rioya qiliş, adolatli bõliş, boşqalarga ozor yetkazmaslik va jamiyatda tinchlikni saqlaşga oid kõplab rivoyatlar keltirilgan. [2]

Uşbu manbalar Islom axloqining amaliy jihatlarini anglaş imkonini beradi. Mavzuning ilmiy-nazariy asoslarini õrganişda Imom Ğazzoliyning axloqiy qaraşlari ham muhim ahamiyat kasb etadi. Uning inson axloqi, mehr-oqibat, nafs tarbiyasi va ma'naviy kamolotga oid fikrlari bağrikenglikning şaxsiy fazilat sifatida şakllaniş mexanizmlarini tuşunişga yordam beradi. Şuningdek, Şayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusufning islomiy ma'rifatga oid asarlari, jumladan, "Ijtimoiy odoblar" asarida insonlar õrtasidagi munosabatlar, muomala madaniyati, hurmat va odob masalalari yoritilgan. Bağrikenglik tuşuncasini zamonaviy nuqtayi nazardan õrganişda YUNESKO tomonidan 1995-yil 16-noyabrda qabul qilingan "Bağrikenglik tamoyillari deklaratsiyasi" ham muhim xalqaro hujjat hisoblanadi. Unda bağrikenglik insonlarning turli madaniyatlari, dunyoqaraşlari va e'tiqodlariga hurmat bilan munosabatda bõliş, tinchlikni mustahkamlaş va inson huquqlarini himoya qiliş bilan boğliq qadriyat sifatida talqin etilgan. Maqolani tayyorlaş jarayonida tarixiylik, manbaşunoslik, qiyosiy tahlil, tizimli yondaşuv va mantiqiy umumlaştiriş metodlaridan foydalanildi. Tarixiylik metodi orqali Islom dinida bağrikenglik ğoyalarining şakllanişi va rivojlanişi õrganildi. Manbaşunoslik metodi yordamida Qur'oni karim oyatlari va hadislarning mazmuni tahlil qilindi. Qiyosiy tahlil orqali diniy manbalardagi bağrikenglik tamoyillari zamonaviy insonparvarlik qadriyatlari bilan soliştirildi. Tizimli yondaşuv asosida esa tinchliksevarlik, adolat va õzaro hurmat tuşuncalarining õzaro boğliqligi ocib berildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: Islom dinida bağrikenglik tuşuncasining mazmun-mohiyati Bağrikenglik insonning boşqa kişilarning e'tiqodi, millati, tili, urf-odati, dunyoqaraşi va turmuş tarziga hurmat bilan munosabatda bõlişini ifodalovci muhim ma'naviy-axloqiy fazilatdir.

Bu tuşunca insonlar õrtasida õzaro tuşuniş, murosa, hamkorlik va hamjihatlikni şakllantirişga xizmat qiladi. Islom ta'limotida bağrikenglik adolat, mehr-şafqat, inson qadr-qimmatini hurmat qiliş va boşqalarga yaxşilik qiliş kabi tamoyillar bilan cambarcas boğliqdir. Islom dinida bağrikenglik, eng avvalo, insonlarning e'tiqod masalasidagi erkinligiga hurmat bilan munosabatda bõlişda namoyon bõladi. Qur'oni karimning Baqara surasi 256-oyatida "Dinda zõrlaş yõq" degan tamoyil bayon etilgan. Uşbu oyat diniy e'tiqod majburlaş orqali emas, balki insonning ongli tanlovi va işonci asosida şakllanişi kerakligini anglatadi. Demak, Islom

ta’limotida e’tiqod masalasida zõravonlik va majburlaş emas, balki tuşuntiriş, dalillaş va insonning erkin tanloviga hurmat kõrsatiş muhim õrin tutadi. Qur’oni karimning Hujurot surasi 13-oyatida insonlarning turli xalqlar va qabilalarga ajratilgani bir-birlarini tanişlari ucun ekani ta’kidlanadi. Mazkur oyat insoniyatning milliy, irqiy va ijtimoiy jihatdan turli-tuman bõlişi tabiiy holat ekanini kõrsatadi. Uşbu xilma-xillik nizolar va adovat ucun emas, balki õzaro tanişuv, hamkorlik va tajriba almaşiş ucun imkoniyat sifatida talqin qilinadi. Oyatning mazmunidan kelib ciqib aytiş mumkinki, insonning qadri uning millati yoki kelib ciqişi bilan emas, balki ezgu amallari va taqvosi bilan belgilanadi. Islom ta’limotida boşqa din vakillariga munosabat masalasi ham bağrikenglik tamoyillari asosida yoritilgan.[3] Qur’oni karimning Mumtahana surasi 8-oyatida musulmonlarga din sababli ularga qarşi uruşmagan va ularni õz yurtlaridan quvib ciqarmagan kişilarga yaxşilik qiliş va adolatli munosabatda bõliş taqiqlanmasligi bayon etiladi. Uşbu oyat dinlararo munosabatlarda tinclik, adolat va insonparvarlik tamoyillarining muhimligini kõrsatadi. Şu õrinda bağrikenglik tuşuncasini barca qaraşlarni bir xil deb qabul qiliş yoki õz e’tiqodidan voz keciş sifatida tuşunmaslik lozim. Bağrikenglik, avvalo, õz e’tiqodiga sodiq qolgan holda boşqa insonlarning huquqlari, şa’ni va qaraşlariga hurmat bilan munosabatda bõlişdir. Bu esa jamiyatda õzaro işonc va barqarorlikni mustahkamlaşga xizmat qiladi.

Qur’oni karimda tincliksevarlik va insonparvarlik ğoyalari Islom dinining asosiy manbasi bõlgan Qur’oni karimda tinclik va insonparvarlik ğoyalari keng õrin egallaydi. Qur’onda inson hayotining daxlsizligi, adolat, mehr-şafqat va tinclikni saqlaşga oid kõrsatmalar mavjud. Mazkur ğoyalar musulmonlarning nafaqat diniy hayotida, balki kundalik ijtimoiy munosabatlarida ham muhim mezon bõlib xizmat qiladi. Anbiyo surasining 107-oyatida Payğambar Muhammad (s.a.v.) butun olamlarga rahmat qilib yuborilganlari bayon etiladi. Uşbu oyat Islom ta’limotida rahm-şafqat va insonparvarlikning naqadar muhim õrin tutişini kõrsatadi. Payğambarimizning hayot yõllari, insonlar bilan muomalalari va jamiyatdagi faoliyatlari ham aynan şu rahmat va mehr-oqibat tamoyillariga asoslangan. Qur’oni karimda tinclikka intiliş, nizolarni murosaga keltiriş va adolatni qaror toptiriş muhim vazifa sifatida belgilangan. Jumladan, Hujurot surasining 9–10-oyatlarida mõminlar õrtasida kelib ciqqan nizolarni isloh qiliş, ularni yaraştiriş va birodarlik munosabatlarini saqlaşga caqiriladi. Bu kõrsatmalar jamiyatda kelişmovciliklarni zõravonlik bilan emas, balki adolat va murosa orqali hal etiş zarurligini anglatadi. Şuningdek, Moida surasining 8-oyatida adolatli bõliş, hatto biror kişiga nisbatan mavjud salbiy munosabat ham adolatsizlikka sabab bõlmasligi kerakligi ta’kidlanadi. Mazkur tamoyil insonlar õrtasidagi munosabatlarda xolislik, haqqoniylik va adolatni ustuvor qõyişni talab etadi. Demak, Qur’oni karimda tincliksevarlik faqat uruş va nizolarning yõqligi bilan ceklanmaydi. [4]

U insonlar õrtasida adolatni ta’minlaş, õzaro hurmatni mustahkamlaş, muammolarni tinc yõl bilan hal qiliş va jamiyatda barqaror muhit yaratişni ham qamrab oladi. Payğambar Muhammad (s.a.v.) hayotida bağrikenglik namunalari Islom dinida bağrikenglik va tincliksevarlik ğoyalari nafaqat Qur’oni karim oyatlarida, balki Payğambar Muhammad (s.a.v.)ning hayotlari va amaliy faoliyatlarida ham yaqqol namoyon bõladi. U zotning turli din va millat vakillari bilan munosabatlari, insonlarga kõrsatgan mehr-şafqatlari va nizolarni tinc yõl bilan hal qilişga intilişlari bağrikenglikning muhim namunasi hisoblanadi. Payğambarimizning Madinaga hijratlaridan sõng turli qabila va diniy jamoalar õrtasida tinc-totuv yaşaşni ta’minlaşga qaratilgan munosabatlar şakllandi. Madina sahifasi nomi bilan maşhur bõlgan kelişuvda musulmonlar va boşqa jamoalarning õzaro munosabatlari, huquq va majburiyatlari belgilangan edi. Uşbu tarixiy hujjat turli diniy va ijtimoiy guruhlarning umumiy xavfsizlik hamda jamiyat barqarorligi yõlida hamkorlik qilişi mumkinligini kõrsatadi. Payğambar Muhammad (s.a.v.)ning insonlarga munosabatlarida mehr-şafqat va adolat ustuvor bõlgan. U zot kişilarning millati, ijtimoiy mavqei yoki kelib ciqişiga qarab kamsitilişiga yõl qõymaslikka caqirganlar. Bu yondaşuv Islom axloqining insonparvarlik mohiyatini namoyon etadi. Makka fath etilganidan keyingi voqealar ham bağrikenglik va kecirimlilikning tarixiy namunalaridan biri sifatida talqin qilinadi. Uzoq vaqt davomida musulmonlarga qarşilik kõrsatgan kişilarga nisbatan kecirim va murosa tamoyillarining namoyon bõlişi jamiyatda tinclikni tiklaşga xizmat qilgan. Bu voqea kuc

işlatişdan kõra kecirimlilik va yaraşuvning ijtimoiy ahamiyatini anglaşga yordam beradi. Payğambarimizning uşbu hayotiy namunalari şuni kõrsatadiki, Islom ta'limotida bağrikenglik faqat nazariy tuşunca emas, balki kundalik hayotda amalga oşirilişi zarur bõlgan axloqiy tamoyildir. Insonlarga yaxşilik qiliş, ularning huquqlarini hurmat qiliş, muammolarni tinc yõl bilan hal etiş va kecirimli bõliş mazkur ta'limotning muhim jihatlaridan hisoblanadi. ### Islomda tincliksevarlik ğoyalarining zamonaviy jamiyatdagi ahamiyati Bugungi globallaşuv şaroitida dunyoning turli hududlarida diniy va milliy kelişmovciliklar, ekstremistik qaraşlar, murosasizlik va zõravonlik holatlari ucrab turadi.

Bunday vaziyatda tincliksevarlik va bağrikenglik qadriyatlarini keng tarğib etiş, yoşlarni insonparvarlik va õzaro hurmat ruhida tarbiyalaş alohida ahamiyat kasb etadi. Islom dinidagi bağrikenglik ğoyalari zamonaviy jamiyatda millatlararo va dinlararo totuvlikni mustahkamlaş ucun muhim ma'naviy asos bõlib xizmat qiladi. Ayniqsa, yoş avlodga diniy manbalarni tõğri va xolis õrgatiş, ularda turli e'tiqod vakillariga hurmat bilan munosabatda bõliş kõnikmalarini şakllantiriş muhimdir. Õzbekiston kõp millatli va kõp konfessiyali davlat sifatida turli millat hamda diniy e'tiqod vakillarining tinc-totuv yaşaşi ucun huquqiy va ijtimoiy şaroitlarni şakllantirişga alohida e'tibor qaratib kelmoqda. Õzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 35-moddasida hamma ucun vijdon erkinligi kafolatlanganligi, har kim xohlagan dinga e'tiqod qiliş yoki hec qaysi dinga e'tiqod qilmaslik huquqiga ega ekanligi belgilangan. Şuningdek, diniy qaraşlarni majburan singdirişga yõl qõyilmasligi mustahkamlangan.

2021-yil 5-iyulda qabul qilingan "Vijdon erkinligi va diniy taşkilotlar tõğrisida"gi ÕRQ-699-sonli Qonunda ham diniy bağrikenglikni ta'minlaş, konfessiyalar õrtasidagi tinclik va totuvlikni mustahkamlaş muhim ustuvor yõnaliş sifatida belgilangan. Bu esa diniy bağrikenglik nafaqat ma'naviy qadriyat, balki jamiyat taraqqiyoti va davlat siyosatining muhim huquqiy tamoyili ekanini kõrsatadi. Yoşlar tarbiyasida Islom dinining tincliksevarlik va bağrikenglik ğoyalaridan foydalaniş quyidagi yõnalişlarda muhim natijalar berişi mumkin:

1. Turli din va millat vakillariga hurmat bilan munosabatda bõliş madaniyatini şakllantiriş.
2. Yoşlarni zõravonlik, adovat va murosasizlikka qarşi ma'naviy immunitet ruhida tarbiyalaş.
3. Inson huquqlari, vijdon erkinligi va adolat tamoyillarini anglaşga kõmaklaşiş.
4. Jamiyatda õzaro yordam, hamjihatlik va mehr-oqibat munosabatlarini rivojlantiriş.
5. Diniy manbalarni xolis õrganiş orqali notõğri talqin va zararli qaraşlarning oldini oliş. Şunday qilib, Islomda ilgari surilgan bağrikenglik va tincliksevarlik ğoyalari zamonaviy jamiyatda ijtimoiy barqarorlik, millatlararo totuvlik va insonparvarlikni rivojlantirişda muhim ahamiyatga ega. Uşbu qadriyatlarni ta'lim-tarbiya jarayoniga keng tatbiq etiş yoşlarning ma'naviy dunyosini boyitiş va jamiyatda tinclik muhitini mustahkamlaşga xizmat qiladi. [5]

Xulosa : Xulosa qilib aytganda, Islom dinida bağrikenglik va tincliksevarlik ğoyalari insonparvarlik, adolat, mehr-şafqat, õzaro hurmat va hamjihatlik kabi muhim ma'naviy qadriyatlar bilan uzviy boğliqdir. Qur'oni karim oyatlari va Payğambar Muhammad (s.a.v.)ning hayotiy faoliyatlari uşbu qadriyatlarning diniy va axloqiy asoslarini yaqqol namoyon etadi. Tadqiqot davomida Qur'oni karimning Baqara surasi 256-oyatida e'tiqod erkinligi, Hujurot surasi 13-oyatida millatlararo tanişuv va õzaro hurmat, Mumtahana surasi 8-oyatida boşqa din vakillariga nisbatan adolatli va yaxşilikka asoslangan munosabat, Anbiyo surasi 107-oyatida esa rahm-şafqat va insonparvarlik ğoyalari ifodalanganligi aniqlandi. Uşbu oyatlar Islom ta'limotida tinclik va bağrikenglik muhim axloqiy tamoyillar ekanini kõrsatadi.

Şuningdek, Payğambar Muhammad (s.a.v.)ning hayotlari va faoliyatlari turli diniy hamda ijtimoiy guruhlar õrtasida tinclikni saqlaş, nizolarni murosa orqali hal qiliş, insonlarga mehr-şafqat kõrsatiş va adolatli munosabatda bõlişning amaliy namunasi hisoblanadi. Bu tarixiy tajriba bugungi kunda ham õz ahamiyatini saqlab qolmoqda. Maqolada õrganilgan manbalar asosida şunday xulosaga keliş mumkinki, bağrikenglik insonning õz e'tiqodidan voz kecişi emas, balki boşqa insonlarning huquqlari va qaraşlarini hurmat qilgan holda tinc-totuv yaşaşga intilişidir.

Tincliksevarlik esa faqat nizolardan qociş emas, balki jamiyatda adolat, õzaro işonc, hamkorlik va barqarorlikni ta'minlaşga qaratilgan faol ma'naviy pozitsiyadir. Bugungi kunda Islom dinining bağrikenglik va tincliksevarlikka oid ğoyalarini yoş avlodga ilmiy va xolis asosda yetkaziş, ularni millatlararo hamda dinlararo totuvlik ruhida tarbiyalaş muhim ahamiyatga ega. Zero, õzaro hurmat, mehr-oqibat va adolatga asoslangan jamiyatgina barqaror taraqqiyotga erişa oladi. Umuman olganda, Islom dinining asosiy manbalarida ilgari surilgan bağrikenglik va tincliksevarlik ğoyalari bugungi zamonaviy jamiyat ucun ham muhim ma'naviy mezon bõlib xizmat qiladi. Uşbu qadriyatlarni cuqur õrganiş va hayotga tatbiq etiş tinclikni asraş, inson qadr-qimmatini uluğlaş hamda jamiyatda totuvlikni mustahkamlaşning muhim omillaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar :

1. Qur'oni karim. Õzbek tilidagi ma'nolar tarjimasi. – Toşkent.
2. Imom Buxoriy. Al-jome' as-sahih. – Toşkent: Qomuslar Boş tahririyati.
3. Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Ijtimoiy odoblar. – Toşkent: Hilol-Naşr.
4. UNESCO. Declaration of Principles on Tolerance. – Paris, 1995.
5. Õzbekiston Respublikasining "Vijdon erkinligi va diniy taşkilotlar tõğrisida"gi Qonuni. ÕRQ-699-son, 2021-yil 5-iyul.